qilishda qulay davr hisoblanadi. Maktab yoshida jismoniy tarbiya va aqliy mehnat qobiliyati ma'lum darajaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-dekabrdagi "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-449-qarori. http: //Lex.uz

(2). М.Ж.Давурбаева. Кичик мактаб ёшидаги болаларда ҳаракат фаоллиги соғломлаштириш маданияти кўрсаткичи сифатида. "Халқ таълими", илмий-методик журнал, Тошкент, 2016, 3-сон, 76–80-бетлар.

(3). М.Ж.Давурбаева. 7–8 ёшли болаларнинг координацион қобилиятларини ритмик гимнастика воситалари ёрдамида ривожлантириш. "Халқ таълими", Тошкент, 2015, 3-сон, 66–72-бетлар.

(4). M.Zh.Davurbaeva. Educatoin of Physical Qualities at Gymnastic Classes in Primary School //Eastern European Scientific Journal Ausgabe 6, 2016, p. 139–143.

(5). А.К.Эштаев. Гимнастика дарси. Т., ЎзДЖТИ, 2004, 120-бет.

(6). Б.И.Неъматов. Мактабгача таълим ташкилотларида нафас олиш гимнастикасини ўтказишга доир тавсиялар. "Наманган Давлат университет ахборотномаси", илмий-методик журнал, Наманган, 2021, 12-сон, 589–595-бетлар.

(7). B.I.Ne'matov. Harakatli o'yinlar va uni o'qitish uslubiyoti. Toshkent, "Umid Design", 2021, 68-bet.

(8). B.I.Ne'matov. Sport mashg'uloti nazariyasi va uslubiyati. T., "Umid Design", 2024, 184-bet.

(9). B.I.Ne'matov. Jismoniy tarbiya va sportda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish. Namangan, Ta'lim tadqiqotlari akademiyasi, 2024, 110-bet.

(10). Б.И.Неъматов. Учёт фактора степени биологического развития учащихся общеобразовательных школ. "Maktab va hayot", ilmiy-metodik jurnal, Toshkent, 2021, 4-son (160), 39–40-betlar.

(11). Б.И.Неъматов. Особенности модульного обучения специалистов по физической культуре и спорту на курсах повышения квалификации. "Образование Луганщины: теория и практика", научно-методический журнал, № 3 (22), Луганск. 2021, 28–31 с.

(12). B.I.Ne'matov. Initial training of young football players first year of study at children's and youth sports school. Mental enlightenment scientific – methodological journal. Year 2024, p. 160–167. https://doi.org/10.37547/mesmj-V5-I9-22.

Abdug'affarova Arofat Shamsiddinovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti tayanch doktoranti)

FILOLOGIYA TALABALARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI SAMR MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRSH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning filologiya talabalarini o'qitishdagi afzalliklari va ular yaratadigan keng imkoniyatlar tahlil qilinadi. Xususan, SAMR modeli asosida dars jarayonlarini tashkil etishning samarali jihatlari bayon etilgan. Maqolada ingliz tili darslarida leksik kompetensiyani raqamli vositalar yordamida takomillashtirish, talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan*

Kalit so'zlar: *filologiya talabalari, SAMR modeli, leksik kompetensiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, innovatsion metodika.*

Абдугаффарова Арофат Шамсиддиновна (Докторант Узбекского государственного университета мировых языков)

ФОРМИРОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ SAMR

Аннотация. *В данной статье анализируются преимущества и широкие возможности, создаваемые цифровыми технологиями в обучении студентов-филологов. В частности, описываются эффективные аспекты организации учебного процесса на основе модели SAMR. В статье освещаются вопросы совершенствования лексической компетенции на уроках английского языка с помощью цифровых инструментов, а также развития знаний и навыков студентов.*

Ключевые слова: *студенты-филологи, модель SAMR, лексическая компетенция, цифровые образовательные технологии, инновационная методика.*

Abdugaffarova Arofat Shamsiddinovna (A doctorate of Uzbekistan State World Languages University)

DEVELOPING THE LEXICAL COMPETENCE OF PHILOLOGY STUDENTS BASED ON THE SAMR MODEL


Annotation. *This article analyzes the advantages and vast opportunities created by digital technologies in teaching philology students. In particular, it describes the effective aspects of organizing the educational process based on the SAMR model. The article highlights the issues of improving lexical competence in English classes through digital tools, as well as developing students' knowledge and skills.*

Keywords: *philology students, SAMR model, lexical competence, digital educational technologies, innovative methodology.*

Kirish. Bugungi globallashuv va jadal raqamlashuv davrida chet tillarini egallash filologiya yo‘nalishi talabalari uchun nafaqat muloqot vositasi, balki professional kompetensiyaning asosi hisoblanadi. Til o‘rganish jarayonida leksik qatlam, ya’ni, lug‘at boyligi barcha nutqiy ko‘nikmalarni – tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirishni birlashtiruvchi poydevordir. Zero, yetarli so‘z zaxirasiga ega bo‘lmagan talaba tilning grammatik qoidalarini mukammal bilsa-da, fikrini aniq va ravon bayon etishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Biroq, zamonaviy oliy ta’lim amaliyotida filologiya talabalarining lug‘at boyligini oshirishda hamon an’anaviy metodlardan, xususan, so‘zlarni mexanik yodlash (rote learning) va kontekstdan ayro holda tarjima qilish usullaridan keng foydalanilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv talabalarda kognitiv charchoqni keltirib chiqaradi, olingan bilimlarning qisqa muddatli xotirada qolib ketishiga va eng asosiysi, o‘quv motivatsiyasining pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Raqamli avlod vakillari hisoblangan bugungi talabalar uchun statik ma’lumotlar manbayi dars jarayonida kutilgan samarani bermayapti. Ushbu maqolaning maqsadi filologiya yo‘nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida texnologiyalarni dars jarayoniga shunchaki vosita sifatida emas, balki ta’lim mazmunini transformatsiya qiluvchi tizim – SAMR modeli (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) asosida tatbiq etish metodikasi taklif etiladi. Bu orqali talabalarning lug‘at boyligini oshirish jarayonini interaktiv, shaxsiylashtirilgan va samarali shaklga keltirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Leksik kompetensiya tushunchasi shunchaki so‘zlarning ma’nosini bilish emas, balki ularni turli nutqiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Taniqli metodist olimlar J. Richards [3;258-b.] va P.Nation o‘z tadqiqotlarida so‘z o‘rganishning ko‘p qirrali tabiatini asoslab berishgan. P.Nation [1;48-b.] o‘zining "Learning Vocabulary in Another Language" asarida so‘zni o‘zlashtirishni uchta asosiy komponentga ajratadi: shakl (form), ma’no (meaning) va qo‘llanish (use). Uning fikricha, talaba so‘zni o‘z nutqiy zaxirasiga (active vocabulary) kiritishi uchun "incidental learning" (vaziyatli o‘rganish) va "intentional learning" (maqsadli o‘rganish) strategiyalarini muvozanatda saqlashi lozim. J. Richards esa so‘z boyligini oshirishda "kollokatsiyalar" (so‘z birikmalari) va "leksik bog‘liqliklar"ning o‘rni beqiyos ekanligini, filologiya talabalari so‘zni alohida emas, balki kontekst ichida o‘rganishi shartligini ta’kidlaydi. Raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga shunchaki "qo‘shimcha" sifatida emas, balki o‘qitish sifatini tubdan o‘zgartiruvchi omil sifatida kiritishda Ruben Puentedura tomonidan ishlab chiqilgan SAMR [2;2,3-b.] modeli (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.



Raqamli vositalarning kognitiv tahlili. Bugungi kunda Quizlet, Kahoot, Memrise va Wordwall kabi platformalar leksikani o‘qitishda "gamifikatsiya" (o‘yinlashtirish) va "spaced repetition" (intervalli takrorlash) tamoyillarini birlashtirmoqda. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, ushbu vositalar ma’lumotni qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o‘tkazish jarayonini tezlashtiradi.

Xalqaro tadqiqotchi M.Warschauer ta’kidlashicha, raqamli muhitda talabaning "learner autonomy" (o‘quv avtonomiyasi) darajasi oshadi, bu esa filologiya talabalari uchun mustaqil ravishda terminologik bazani kengaytirishda muhimdir. Mahalliy olimlarimiz ham ta’limni raqamlashtirish jarayonida talabalarning individual kognitiv uslublarini hisobga olish dars samaradorligini 30–40%gacha oshirishini ilmiy isbotlaganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. SAMR modelini joriy etishda aralash metodologiya (mixed methods) eng samarali yondashuv hisoblanadi., chunki u ham miqdoriy (statistik), ham sifat (subyektiv tajriba) ma'lumotlarini birlashtiradi. Tajriba jarayonida o'quv topshiriqlari Ruben Puenteduraning SAMR modeli darajalari bo'yicha tizimlashtiriladi. Har bir bosqichda talabalarning leksik birliklarni o'zlashtirish darajasi quyidagi raqamli vositalar orqali amalga oshiriladi:

Substitution (Almashtirish) bosqichi. Bu bosqichda an'anaviy bosma lug'atlar va tarqatma materiallar raqamli analoglarga almashtiriladi. Talabalar Oxford Learner's Dictionaries va Merriam-Webster onlayn platformalaridan foydalangan holda so'zlarning transkripsiyasi, sinonimlari va kontekstual ma'nolarini mustaqil izlashga o'rgatiladi va bu talabalarning axborot izlash tezligini oshiradi.

Augmentation (Kengaytirish) bosqichi. O'quv jarayoniga interaktivlik kiritiladi, ya'ni, bunda Quiz-et va Memrise platformalarida maxsus "Leksik modullar" yaratiladi. Talabalar intervalli takrorlash (spaced repetition) algoritmi asosida so'zlarni yodlashadi. Raqamli kartochkalar va gamifikatsiyalashgan (o'yinlashtirilgan) testlar talabalarda ichki motivatsiyani uyg'otdi va so'zlarning talaffuzini audio formatda tinglash imkonini beradi.

Modification (O'zgartirish) bosqichi. Bu bosqichda an'anaviy dars xonasi doirasidan chiqilib, hamkorlikdagi o'quv muhiti (collaborative learning) yaratiladi. Talabalar Padlet virtual doskasida yoki Google Docs muhitida umumiy leksik mavzular bo'yicha "Mind Maps" (tafakkur xaritalari) tuzadilar. Masalan, "Academic Vocabulary" mavzusida talabalar guruhlarga bo'linib, yangi so'zlarni frazeologizmlar va kollokatsiyalar bilan bog'lagan holda interaktiv vizual sxemalar tayyorlaydilar.

Redefinition (Qayta belgilash) bosqichi. Tadqiqotning eng yuqori bosqichi bo'lib, talabalar o'rganilgan leksikani amaliy, real loyihalarda qo'llaydilar. Talabalarga Canva yoki Adobe Express yordamida o'rganilgan mavzu bo'yicha 2–3 daqiqalik "Video-essay" yoki raqamli "Storytelling" (hikoya qilish) mahsulotini yaratish vazifasi beriladi. Bu bosqichda til o'rganuvchi shunchaki iste'molchi emas, balki tilni ijodiy qo'llovchi "kontent yaratuvchi"ga aylanadi.

Tahlil va natijalar. SAMR modeli iyerarxiyasi bo'yicha sifat o'zgarishlari. Tadqiqot davomida SAMR modelining har bir bosqichi talabalarning so'z boyligini o'zlashtirish jarayonida o'ziga xos kognitiv vazifalarni bajaradi:

Substitution va Augmentation (yaxshilash darajasi): Talabalar onlayn lug'atlar va interaktiv kartochkalar (Quizlet) orqali axborotni qidirish va qayta ishlash tezligini oshiradilar. An'anaviy lug'at daftarlaridan farqli o'laroq, raqamli vositalar so'zning talaffuzi, sinonimlari va kontekstual qo'llanilishini bir vaqtda taqdim etishi talabalarda so'z haqidagi yaxlit tasavvurning tezroq shakllanishiga xizmat qiladi.

Modification va Redefinition (Transformatsiya darajasi.: Bu bosqichlarda talabalar passiv qabul qiluvchidan aktiv kontent yaratuvchiga aylantiradi. Birgalikda raqamli lug'atlar yaratish (Padlet) va o'rganilgan leksika asosida multimedia mahsulotlarini (Canva videolari) tayyorlash talabalarning yangi so'zlarni amaliy nutqda qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, so'zni ijodiy loyihada ishlatish uni mexanik yodlashga qaraganda xotirada uzoqroq saqlanishini ta'minlaydi.

Interaktivlik va o'quv motivatsiyasining ortishi. Raqamli gamifikatsiya elementlari (Kahoot, Wordwall) dars jarayonidagi emotsional muhitni tubdan o'zgartiradi. Raqamli gamifikatsiya elementlarini darsda joriy etishda darsda quyidagi samaradorliklarga erishish mumkin.

Darsdagi faollik. Raqamli o'yinlar va musobaqa elementlari, hatto o'ziga ishonchi past bo'lgan talabalarni ham dars jarayoniga jalb qiladi. Talabalar xato qilishdan qo'rqmasdan, interaktiv teskari aloqa (instant feedback) orqali o'z bilimlarini darhol tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mustaqil ta'lim (Learner Autonomy) [4;112-b.]. Mobil ilovalarning qulayligi talabalarda darsdan tashqari vaqtda ham til o'rganish odatini shakllantiradi. Bundan tashqari, o'zbek olimalaridan Sh. Shodmonova [5;42-b]. ta'lim jarayoniga innovastsiyalarni olib kirish faqat texnik vositalardan emas, balki o'qitishning maqsad va mazmunini yangilash ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, talabalarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda interaktiv muhitning o'rni beqiyosdir deb ta'kidlaydi. Fikr-mizning isboti sifatida talabalar o'zlarining o'zlashtirish darajalarini raqamli platformalar orqali mustaqil kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'lishi ularda mas'uliyat hissini oshiradi.

Xulosa. Filologiya yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini takomillashtirish bugungi kunda nafaqat til o'rganish, balki professional muloqot madaniyatini shakllantirishning asosiy omilidir. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tizimli integratsiyasi lug'at boyligini oshirishda tub burilish yasashini ko'rsatadi. Keltirilgan ma'lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, AA raqamli vositalar (Quizlet, Padlet, Canva va h.k.) shunchaki yordamchi uskuna emas, balki talabalarning kognitiv faoliyatini boshqaruvchi metodik vositadir. SAMR modeli asosida darslarni tashkil etish

o‘qituvchiga texnologiyadan foydalanishning oddiy "almashtirish" bosqichidan murakkab "qayta belgilash" bosqichigacha bo‘lgan yo‘lni aniq belgilab beradi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning passiv lug‘at boyligini (passive vocabulary) faol nutqiy zaxiraga (active vocabulary) aylantirish jarayonini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Nation I.S.P. (2013). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge, Cambridge University Press.

(2). Puentedura R.R. (2010). SAMR: A brief introduction. Hippasus.

(3). Richards J.C., Rodgers T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

(4). Warschauer M. (2011). Learning in the Cloud: How Digital Tools Are Retraining Education. Teachers College Press.

(5). Shodmonova Sh.S. (2020). Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, "Fan va texnologiya”.

Isakov Zakirjon Soliyevich (Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

ONA TILI DARSLARIDA SHE’RIY MATNLAR BILAN ISHLASHNING NAZARIY-AMALIY VA MA’RIFIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim ona tili darslarida she’riy matnlar bilan ishlashning nazariy, amaliy va ma’rifiy-ma’rifiy ahamiyati shaxsiy tajribalar asosida yoritishga harakat qilingan. She’riy matnlarning o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, she’r bilan ishlashning samarali metodlari va ularning ta’lim jarayonidagi qo‘llanishi bo‘yicha amaliy takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *she’riy matn, nutqiy kompetensiya, nutq rivoji, estetik tarbiya, badiiy tafakkur, lingvistik tahlil, metodika, ifodali o‘qish, interpretatsiya, ma’naviyat, nutq fasohati.*

Исаков Закиржон Солиевич (доцент Кокандского государственного университета, кандидат филологических наук)

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ, ПРАКТИЧЕСКОЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАБОТЫ С ПОЭТИЧЕСКИМИ ТЕКСТАМИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье на основе личного опыта предпринята попытка осветить теоретическое, практическое и педагогически-просветительское значение работы с поэтическими текстами на уроках родного языка в начальной школе. Научный анализируется роль поэтических текстов в развитии речевой компетенции учащихся, формировании эстетического вкуса и духовно-нравственном воспитании. Также даны практические рекомендации по эффективным методам работы с поэзией и их применению в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *поэтический текст, речевая компетенция, развитие речи, эстетическое образование, художественное мышление, лингвистический анализ, методология, выразительное чтение, интерпретация, духовность, красноречие.*

Isakov Zakirjon Soliyevich (Associate Professor at Kokand State University, Candidate of Philological Sciences)

THEORETICAL, PRACTICAL AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF WORKING WITH POETIC TEXTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

Annotation. *This article, drawing on personal experience, attempts to illuminate the theoretical, practical, and educational significance of working with poetry in native language lessons in primary school. It analyzes the role of poetry in developing students' verbal competence, aesthetic appreciation, and spiritual and moral education. Practical recommendations for effective methods of working with poetry and their application in the educational process are also provided.*

Keywords: *poetic text, speech competence, speech development, aesthetic education, artistic thinking, linguistic analysis, methodology, expressive reading, interpretation, spirituality, eloquence.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning fikrlash, nutqiy va estetik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda ona tili fanining o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, she’riy matnlar o‘quvchilarning: til sezgirligini, obrazli fikrlashini, estetik didini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. She’r – bu nafaqat til hodisasi, balki ma’naviy-estetik fenomen bo‘lib, unda tilning barcha qatlamlari (fonetika, leksika, grammatika, stilistika) mujassamlashadi. She’riyatning inson ruhiyatiga ta’siri haqida ko‘plab allomalar fikr bildirgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy “She’r inson ruhiyatiga ta’sir etib, uni tarbiyalaydigan kuchli vositadir” [2;28-b.] deb, Alisher Navoiy “She’r dildan chiqib, dilga yetib boruvchi so‘z” [3;56-b.] ekanligini ta’kidlasa, Aristotel she’riyatni